

BUZRUK MAQOMI MUSHKILOTI (SAQILI ISLIMXON MISOLIDA)GI MAQOMNI USTOZ–SHOGIRD FAOLIYATINING IJODIY SHART-SHAROITLARI

Raimova Dilfuza Mahamatsaliyevna

Andijon davlat universiteti

dilya_solievna@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11659455>

Annotasiya. Maqolada Maqom san'ati o'zining ko'p asrlik tarixiga ega ekanligi. Bu tarixni o'zaro farqli ikki yirik davrga ajratish mumkinligi. Birinchi davr mazmunini maqomlarning makon-zamon nuqtayi nazaridan juda qadimiy kelib chiqish ildizlari, dastlabki kuy-ohang qatlamlarini o'rganish masalalari tashkil etadi. Tabiiyki, bu davrda, hozirda ma'lum tom ma'nodagi maqomlar bo'lmagan, albatta. Chunki, maqom tizimlarining shakllanish jarayonlari ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ma'lum bosqichi bilan shartlanganligi xaqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlari: ma'naviy go'zalligi, milliy musiqa, musiqa ilmi, ustoz–shogird faoliyati, ijodiy shart-sharoitlar.

CREATIVE CONDITIONS OF MASTER-STUDENT ACTIVITY IN THE PROBLEM OF THE STATUS OF BUZRUK (IN THE CASE OF THE BEARDED ISLAM KHAN)

Abstract. The fact that the art of status in the article has its own centuries-old history. This is the fact that history can be divided into two large periods of mutual difference. The content of the first period is organized by the very ancient roots of origin from the point of view of the spatial-temporal point of status, the issues of studying the layers of the initial melody. Naturally, during this period, there were no currently known literal statuses, of course. Because it is mentioned in the conclusion that the processes of formation of status systems are conditioned by a certain stage of socio-cultural development.

Keywords: spiritual beauty, national music, music science, master–disciple activity, creative conditions.

ТВОРЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАГИСТРАНТОВ В ПРОБЛЕМЕ СТАТУСА БУЗРУКА (НА ПРИМЕРЕ БОРОДАТОГО ИСЛАМ-ХАНА)

Аннотация. В статье говорится, что статусное искусство имеет многовековую историю. Это тот факт, что историю можно разделить на два основных периода, которые отличаются друг от друга. Содержание первого периода составляют вопросы изучения в пространственно-временном плане статусов корней очень древнего происхождения, ранних мелодико-мелодических пластов. Естественно, в этот период, конечно, не было известных буквальных статусов. Так как было отмечено, что процессы формирования статусных систем обусловлены определенным этапом социокультурного развития.

Ключевые слова: духовная красота, национальная музыка, музыкальная наука, деятельность учителя–ученика, творческие предпосылки.

O'zbek xalqining ma'naviy go'zalligi asrlar qa'ridan kelayotgan kuyohanglarida o'zining ajoyib va betakror badiiy in'ikosini topgan. Ulug'ajdodlarimiz bergan ta'rifga ko'ra, musiqa – inson ruhining g'izosidir. Binobarin, ko'p asrlar davomida xaliqimiz boy ma'naviyatining, teran tafakkurining, barkamol ruhiyatining sadolardagi jonli ifodasi bo'lgan milliy musiqa bugungi

kunda buyuk davlat bunyodkori bo‘lmish jamiyatimizning ruh quvvati va jon ozig‘i bo‘lmog‘i ayni muddaodir.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev tomonidan juda ko‘plab farmon va qarorlar ishlab chiqildi, shular qatorida musiqa va san‘atni yanada rivojlantirish, bolalar musiqa va san‘an maktablarini qurish va hududiy jihatdan maqbul joylashtirish bo‘yicha boshlangan ishlarni mantiqiy davom ettirish, o‘tib kelayotgan yosh avlodning umumiy o‘rta ta‘limi va ularni har tomonlama ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning bir-biriga bog‘langan yaxlit tizimini shakllantirish, bolalarning ijodiy salohiyatini yanada keng ochib berish, musiqa va san‘atning boshqa turlarini chuqurroq tushinishi hamda ularga nisbatan mehr-muhabbat uyg‘otish, musiqa va tasviriy san‘at sohalarida jahon buyuk merosini o‘rganib bilishlari uchun shart sharoitlar yaratib berilmoqda.

Sharq olamida maqom tizimlarining paydo bo‘lishi uchun zarur omillar IX-X asrlarda yuzaga kelgan edi. Zero bu asrlarga kelib o‘zida ilmiyijodiy kuchlarni bir makonda mujassam etgan Bag‘dod, Damashq, Samarqand, Buxoro, Urganch, Farg‘ona, Toshkent kabi yangi tipdagi shaharlar uzil-kesil shakllandi. Shuni ta‘kidlash joizki, Markaziy Osiyo shaharlari umumsavodxonlik markazlari ham edi.

Aytib o‘tish joizki, bolalar musiqa va san‘at maktablari o‘quvchilarini tarbiyalashda boy musiqa tariximizni o‘rgatish, ularda an‘anaviy ijrochilik, xonandalik ijrochiligi, estrada ijrochiligi va xok..... kabi musiqiy fanlarida maqom ijrochiligidako‘nikmalarini shakllantirish katta axamiyatga ega.

Hususan, musiqa darslarida maqom ijrochiligi malakalarini shakllantirish vazifalarini o‘quv jarayonida qo‘llash o‘ziga hos xarakter kasb etadi va tarbiyaviy ishlarning asosiy shakli bo‘lib hisoblanadi. Maqom ijrochiligi malakalari har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda o‘quvchilarda musiqiy ijrochilik bilim darajasini oshirish jarayonini muayyan ketma-ketlikda bajarilishini ko‘zda tutadi. Demak, musiqiy bilimlar, musiqiy dunyoqarash, musiqiy qobiliyat va ahloqiy fazilatlarini shakllantirish aniq belgilab berilgan.

An‘anaviy xonandalikda Buzruk maqomi mushkiloti (Saqlı İslımxon mısolıda) maqomlarini yosh avlodga o‘rgatish dolzarb muammo bo‘lib, musiqiy ijrochilik bilimlarini oshirish, maqom ijrochiligi malakalarini shakllantirish faoliyatlari asoslanib berilmagan.

Sharq musiqa ilmining kamolot topishida esa qadimgi yunon olimlarining asarlari ham poydevor yanglig‘ asos bo‘ldi. Jumladan, Bag‘doddagi “Baytul-hikma” akademiyasi olimlari qadimgi yunon olimlarining musiqa ilmiga doir bir qator asarlarini – Aristoksenning “Kitabur-rusus”, (Archay), “Kitobul-iyqo” (Book of rhythm), Psevdo-Yevklidning “Kitabun-nag‘am” (Introductio Harmonica), “Kitobul-qonun” (Sectio canon), Nikomaxning “Kitobul-musiqa al-kabir” (Opus Major on Music), Ptolomeyning “Kitobul-musiqa” (Harmonica) – o‘sha davrda ilm tili maqomida bo‘lgan arabchaga tarjima qildilar. Bu hol o‘z navbatida qadimgilarning musiqiy qarashlarini nafaqat Sharq olamida, balki keyinchalik G‘arbga ham keng yoyilishida muhim omil bo‘lgan edi.

Shuni aytish kerakki, Sharq musulmon olamida maqom tizimlarining paydo bo‘lishi uchun zarur omillar IX-X asrlarda yuzaga kelgan edi. Zero, aynan shu davrlarda aniq fanlar rivojlandi, vatandoshimiz Abu Nasr Forobiyning (871-950) musiqashunoslikdagi buyuk xizmatlari o‘laroq, Sharq musiqa ilmiga asos solindi, kasbiy musiqa amaliyoti yangi bosqichga ko‘tarildi. Ana shu omillar ta‘sirida o‘rta asr Sharqining yirik (makaziy) shaharlarida O‘n ikki maqom tizimi yuzaga

kelgan edi. Mazkur tizim tasnifoti dastlab Safiuddin Urmaviy (tax.1230-1294) va Qutbiddin Sheroziylarning (1236/37-1310) musiqa ilmiga doir asarlarida ishlab chiqilgan bo'lib, keyingi asrlarda Abulqodir Marog'iy (1353-1437), Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Husayniy (XV), Najmiddin Kavkabiy (XVI), Darvishali Changiy (XVI-XVII) kabi amaliyotchi va nazariyotchi olimlar tomonidan ijodiy davom ettirilgan.

Maqom ijrochilik malakalarini shakllantirishda Buzruk maqomı mushkilotı (saqılı Islımxon mısolıda)gi maqomni ustoz–shogird faoliyatining ijodiy shart-sharoitlarini aniqlashning asosiy maqsadlaridandir.

An'anaviy xonandalikda Buzruk maqomı mushkilotı (saqılı Islımxon mısolıda)maqomini o'rganishda asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yosh avlodni musiqa san'atining barcha turlariga qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish:
- o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni xalqimiz an'analariga va milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash:
- ma'naviy va ma'rifiy, estetik saviyasini har tomonlama oshirish:
- o'quvchilarning ist'edodini har tomonlama kamol toptirish, madaniy saviyasini yuksaltirish:
- o'zbek xalqining mumtoz musiqa merosi durdonalaridan bahramand bo'lish uchun shart—sharoitlar yaratish:

–milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida o'quvchilarda yuksak ahloqiy fazilatlarini shakllantirish:

Shuningdek, yakka tartibdagi ta'lim jarayonida o'quvchilar maqom ijrochilik malakalarini oshirishda pedagogik texnologiyalarni hisobga olgan holda o'qitishning mazmuni, vositalari, usul va yo'llari boyitiladi hamda bu jarayonga oid ta'limiy topshiriqlar tizimi tavsiya etiladi.

Maqom san'ati o'zining ko'p asrlık tarixiga ega. Bu tarixni o'zaro farqli ikki yirik davrga ajratish mumkin. Birinchi davr mazmunini maqomlarning makon-zamon nuqtayi nazaridan juda qadimiy kelib chiqish ildizlari, dastlabki kuy-ohang qatlamlarini o'rganish masalalari tashkil etadi.

Tabiiyki, bu davrda, hozirda ma'lum tom ma'nodagi maqomlar bo'lmagan, albatta.

Chunki, maqom tizimlarining shakllanish jarayonlari ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ma'lum bosqichi bilan shartlangan. Zotan, tayanch manbalari juda qadim bo'lgan maqomlar «xalqlarning o'ziga xos musiqa boylıkları asosida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga kelgan¹». Bunda saroy madaniyati ham zarur obyektiv omil sifatida muhim o'rin tutgan edi.

Dastlabki davrlarda xalq orasidan yetishib chiqqan iste'dodli musiqachilar xon saroylariga (amaldorlarning xonadonlariga) musiqachi bo'lib xizmat qilish uchun jalb etilganlar. Binobarin, o'tmishda musiqa san'ati bilan maxsus shug'ullanib, shu tarzda hayot kechiruvchi musiqachi (ijodkor-xonanda,sozanda)lar yuzaga kelgan davrlardan boshlab kasbiy musiqa qatlami ham qaror topa boshlagan².

Qadimgi davr musiqachilari «saroy estetikasi»ga muvofiq musiqa asarlarini ijod etishlarida xalq og'zaki ijodida to'plangan badiiy tajriba va musiqa boylıkları asqotgan bo'lishi tabiiydir.

¹ Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent, 2006,40-bet.

² Yunusov R. Maqomlar xususida. – T.: «Bilim», 1982.

Bunda ular el orasida yoyilgan ma'lum kuy va aytimlarni ijodiy qayta ishlagan holda ularning yanada murakkab va mukammal ko'rinishlarini zuhur etishga intilgan bo'lishlari mantiqiy mulohazalarga to'g'ri keladi. O'z navbatida, shu tarzda shakllana boshlagan bastakorlik an'- analari esa, «ustoz-shogird» vositasida keyingi avlod musiqachi (ijodkor-xonanda va sozanda) lari tomonidan ijodiy o'zlashtirilib borilgan. Bunga Sharq madaniyatida yuzaga kelgan nazira badiiy an'analari misol bo'lishi mumkin. Shu kabi jarayonlar hamda boshqa omillar o'laroq ko'p asrlik tarix silsilasida mumtoz kasbiy musiqaning eng salobatli va eng mukammal zuhuri bo'lgan maqom tizimlari yuzaga kela boshlagan edi.

REFERENCES

1. Rajabov I., Maqomlar masalasiga doir, Toshkent, 1963.
2. Ibrohimov O., Maqom va makon, Toshkent, 1996.
3. Matyoqubov O., Maqomot, Toshkent, 2004.
4. Rajabov, Ishoq; Yunusov, Ravshan; O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2004.